

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

RAXIT KASALLIGI NIMA VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI

Yusupova Mashhura Shoyim qizi – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
tibbiyot fakulteti davolash ishi yo'nalishi talabasi

Elektron pochta: mashhurayusupova823@gmail.com

Boyqobilov Soatmurod Shuxrat o'g'li – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
tibbiyot fakulteti tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Elektron pochta: soatmurad_boyqobilov@tues.uz

Annotatsiya

Ushbu maqola raxit kasalligini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Raxit – suyaklarning yumshab, shaklini o'zgartirishi bilan kechadigan kasallik bo'lib, asosan sababi D vitamini va minerallar, ayniqsa kalsiy va fosfor yetishmovchiligidir. Maqolada raxitning kelib chiqish omillari, o'sish jarayoniga ta'siri, uning belgilari va xavf guruhlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, noto'g'ri ovqatlanish, quyosh nurining yetishmasligi, va ekologik sharoitlarning raxitga olib keluvchi sabablari sifatida ko'rsatilishi mumkin. Raxitning oldini olish uchun sog'lom ovqatlanish, D vitamin bilan boyitilgan oziq-ovqatlar va quyosh nuri olishning ahamiyati ta'kidlangan. Maqola, ayniqsa ota- onalar va pediatrlar uchun bolalarning salomatligini himoya qilishda zarur bo'lgan bilim va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: D-vitamini, suyaklar deformatsiyasi, kalsiy preparatlari, raxit, spazmofiliya, soch to'kilishi, ko'p terlash.

Annotation:

This article provides an in-depth analysis of rickets, a disease characterized by the softening and deformity of bones, primarily affecting children. The main cause of rickets is the deficiency of vitamin D, as well as minerals such as calcium and phosphorus. The article thoroughly discusses the factors contributing to the development of rickets, its symptoms, risk groups, and the impact on growth. It

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

highlights how poor nutrition, lack of sunlight, and environmental factors can contribute to the onset of the disease. Preventive measures, such as proper nutrition, consumption of vitamin D-rich foods, and adequate exposure to sunlight, are emphasized. This article offers essential knowledge and practical advice for parents and pediatricians to help protect children's health and prevent rickets.

Keywords: vitamin D, bone deformation, calcium preparations, rickets, spasmophilia, hair loss, profuse sweating.

Аннотация

Эта статья предоставляет всесторонний анализ рахита – заболевания, характеризующегося размягчением и деформацией костей преимущественно встречающегося у детей. Основной причиной рахита является дефицит витамина Д, а также недостаток таких минералов как кальций и фосфор. В статье подробно рассматриваются различные факторы, способствующие развитию рахита, включая неправильное питание, недостаток солнечного света и экологические условия. Также обсуждаются симптомы, группы риска и долгосрочные последствия заболевания для роста детей. Рассматриваются профилактические меры, такие как сбалансированное питание добавки витамина Д и достаточное пребывание на солнце. Эта статья служит информативным источником для родителей и медицинских работников, предлагая практические рекомендации по защите детей от рахита и обеспечению их здорового развития.

Ключевые слова: витамин Д, деформация костей, препараты кальция, рахит, спазмофилия, выпадение волос, обильное потоотделение.

Kirish qismi: Raxit bolalar ichida ko'p uchraydigan kasallik bo'lib, skelet va mushaklarni zararlanishi bilan namoyon bo'ladi. Organizmda D vitamini yetishmasligi tufayli fosfor-kalsiy almashinuvining buzulishi natijasida kelib chiqadi. Raxitga ko'pincha bolaning chala tug'ilishi, quvvatsizligi, sun'iy ovqatlanish sabab

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

bo'ladi. Bola yaxshi parvarish qilinmasa, ochiq havo va quyosh nuridan bahramand bo'lmasa, noto'g'ri ovqatlantirilsa, uning organizmiga D vitamini yetarli miqdorda kirmaydi, yoki ultrabinafsha nurlar yetishmasligidan terisida D vitamini sintezlanishi buziladi va raxit kasalligi kelib chiqadi. Bundan tashqari bolaning tez-tez kasallanishi va onaning homiladorlik vaqtida ovqat ratsionining buzilishi natijasi ham raxit kasalligiga sabab bo'lishi mumkin. Raxit kasalligi moddalar almashinuvining buzilishiga hamda a'zo va sistemalar ishining izdan chiqishiga olib keladi. Bu kasallikda fosfor va Kalsiy tuzlari almashinuvi ayniqsa kuchli buziladi. Ichakda Kalsiyning so'rilishi va suyakka o'tirishi o'zgaradi, bu suyakning ingichkalashib, to'qimalarning yumshashiga, nerv sistemasi va ichki a'zolar ishining buzilishiga sabab bo'ladi. Raxit bola hayoti uchun xavfli emas, lekin uni to'g'ri davolamaslik bola hayotida chuqur va bir umrlik iz qoldirishi mumkin. Bu vaqtda bolada- skeletning sezilarli deformatsiyalari (qiyshayishlari), prikusning qiyshiqligi, yassi oyoqlik va boshqa shunga o'xshash kasalliklar kuzatiladi[2][4].


Asosiy qism: Kasallikning dastlabki davrida bemorning nerv sistemasida o'zgarishlar ro'y beradi: bola qo'rqqoq, tajang, injiq va shalvillagan bo'lib qoladi, ko'p terlaydi, emayotganida yuzi yotganida ensasi terga botadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь




1-rasm. Raxit kasalligining klinik belgilari.

Bolani qichima bezovta qilganligi sababli u boshini yostiqqa ishqayverganidan orqa sochi to'kilib ketadi. Kasallik kuchayganda muskullar zaiflashadi, burishadi, kasal bola sog'lom bolaga nisbatan kech yuradi, qorni shishadi, ichi ko'pincha qotadi yoki suradi, qabziyat kuzatiladi (raxitda mushaklar gipotoniyasi rivojlanadi, ichak mushaklarida ham, buning oqibatida ichak peristaltik harakatlari buziladi va najas sekin harakatlanadi ichki organlarning 1-navbatda oshqozon ichak traktining buzilishi) tishlarning kech chiqishi, qurbaqa qorin ya'ni qorinning osilib qolishi , mushaklar tarangligining yo'qligi, peshona va kallaning tepa suyagi bo'rtib chiqishi, peshona do'ng bo'lib ,tepa va ensa yumshab katta liqildoq suyaklanmasdan boshning kattalashishi kabi bir qator jiddiy xolatlar kuzatiladi. Ko'pincha to'sh yonidagi qovurg'a suyaklar qalinlashadi, unda suyaklar yumshoqligi, suyaklarning yoysimon qiyshiqqligi, suyaklar gidrosefaliyasi uchraydi. Bola yura boshlaganida oyoqlari "X"

yoki “O” shaklida qiyshayadi ko’krak qafasi o’zgarib, oldinga bo’rtib chiqadi yoki ichiga kirib ketadi.



Норма



Рахит

2-rasm. Raxit kasalligida suyakning qiyshayishi.


Ko’krak yoshdagi bolalarni noto’g’ri ovqatlantirish, organizmda vitaminlarning, xususan, vitamin “B” ning yetishmasligi natijasida va noqulay sharoitning muhim ta’siri ostida bolalarda tez-tez raxit kasalligi uchrab turadi. Ko’pincha raxit bo’lgan bir paytda Spazmofiliya, ya’ni nerv muskul sistemasining qo’zg’alish holati: to’satdan boshlanadigan umumiy klonik tirishish xurujlari rivojlanadi. Shuningdek, ko’krak yoshidagi kasalliklar xususiyatlaridan, diatezlar ya’ni organizmning turli kasalliklarga moyillik holatlari tez-tez uchrab turadi. Raxitga uchragan bolalar turli yuqumli kasalliklarga (ayniqsa Zotiljamga) moyil bo’ladi. Shunday qilib, Raxitning asosiy sababi D vitamini yetishmovchiligidir, kasallikning rivojlanishida Kalsiy va fosfor yetishmovchiligi ham ma’lum rol o’ynaydi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь



3-rasm. Suyakning deformatsiyasi.

Agar bola zarur bo'lgan moddalarni oziq- ovqat bilan qabul qilmasa , bolaga ona suti o'rniga sun'iy aralashmalar yoki sirgir suti berilsa qo'shimcha oziqni kech joriy etish (6-8 oydan keyin) agar bola ovqat ratsionining ko'proq qismini bo'tqalar , ayniqsa Manna bo'tqasi tashkil qilsa bolaning terisiga quyosh nuri uzoq vaqt ta'sir qilmagan bo'lsa, ichakda so'rilishi va hazm qilish faoliyati buzilsa bola ovqat ratsionini eng to'yimli oziq – ovqat bilan boyitilganda ham raxit kasalligi ehtimoli kamaymaydi[5].

Raxit uchun xavfli omillar: muddatidan oldin tug'ilganlik -chunki bu vaqtda tug'ilgan chaqaloqlarda oziq moddalarni “zaxira” qilish va hazm tizimi bilan bog'liq buzilishlar mavjud bo'ladi. Ko'p farzandli homiladorlik, bunday homiladorlikda chaqaloqlarda qoida ravishda Kalsiy va fosfor yetishmovchiligi, kuzatiladi va qoracharoq terili bolalarda ham D vitamini ishlab chiqarilishi kam bo'ladi. Bolada raxit kasalligi uch-to'rt oylik davrida namoyon bo'la boshlaydi. Agar kasallik shu bosqichda aniqlanib to'g'ri tashxis bilan davolansa bolaning salomatligi uchun salbiy oqibatlarga olib

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

kelmaydi. Bu vaqtda o'tkazib yuborilsa, kasallik rivojlanadi va avj olish bosqichiga o'tadi, bolada patalogiyaning jiddiy alomatlari, bosh suyagi oyoq-qo'llar deformatsiyasi, tekis bo'yin katta peshona matorika rivojlanishidagi sustliklar va o'z tengdoshlariga nisbatan rivojlanishdan orqada qolish kabi holatlari kuzatiladi. Bu holatlar ma'lum vaqtdan so'ng yaxshilanishi mumkin ya'ni bola tiklanish bosqichiga o'ta boshlaydi bu kasallik rivojlangandan olti-yetti oy o'tib kuzatiladi, lekin bu belgilar butunlay yo'qolib ketmasdan umrbod saqlanib qolishi mumkin. Bu tor tos suyagi, noto'g'ri prikus, raxit tasmasi (bilak va tizzalarning bo'g'in joyida suyaklar yo'g'onlashuvi), qovurg'a munchoqlari (qovurg'alar va ularning to'g'aylari birlashgan qismida shish va tugunchalar) paydo bo'lishi, mushaklar zaifligi, immunitet pasayishi, ko'krak qafasining ikki yon tomondan siqilib, oldinga chiqib ketishi bilan namoyon bo'ladi. Ekologik omillar ham bolalarda raxit kasalligiga sabab bo'lishi mumkin, misol uchun: havoda sanoat chiqindilari, havo, suv va oziq ovqatning ifloslanishi ko'pincha (simob va qo'rg'oshin) va boshqa kimyoviy moddalar bilan zararlanganda organizmda kalsiy va D vitamini kabi muhim moddalar o'zlashtirilishi qiyinlashadi va nafaqat Raxit balki boshqa kasalliklar ham kelib chiqadi. Shu jumladan erta yoshdagi bolalarda raxit va spazmofiliya kasalliklarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki bir yoshgacha bo'lgan bolalarda o'sish va rivojlanish yuqori darajada bo'lib: bola hayotining 12 oyigacha tana massasi 3 marotaba, bo'y uzunligi 1.5 martaga oshadi. Tana o'lchovlarining jadal ravishda o'sishi bolada kalsiy va fosfor almashinuvining absolyut yoki nisbiy yetishmovchiligiga olib keladi. Bu belgilar o'z vaqtida aniqlanib davolanmasa bola uchun jiddiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin [1][3] [5].

Xulosa: Bolalar sog'lom tug'ilishi uchun onalar homiladorlik vaqtida sog'lom kelajak yaratib berishi va to'g'ri ovqatlanish ratsioniga amal qilishi lozim. Buning uchun har bir ayolga homiladorlik davrida shifokor yoki mutaxassis tomonidan tushuntirish ishlari olib borilishi va muntazam tekshiruvda bo'lishi kerak. Raxit kasalligi xavfli

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

bo'limsada uning asoratlari butun umr davomida saqlanib qolishi va bola uchun noqulayliklar tug'dirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B.Qoraxo'jayev, I.T.Salomov, M.N.Abdullayeva - Bolalar kasalliklari provedivtikasi. 2006.
- 2.N.A. Rasulova, R.X.Sharipov – Raxit profilaktikasi va davolashda yangi yondashuv. 2023.
- 3.T.A. Daminov, B.T.Xalmatova, U.R.Boboyeva – Bolalar kasalliklari. 2012.
- 4.U.K. Narziqulov, M.N.Bo'riyev, F.R.Umarxodjayev, U.SH.Ro'ziqulov, G'.M.Nazirqulov, U.M.Samadov – Bolalar travmatalogiya va ortopediyasi bo'yicha amaliy ko'nikmalar. 2015.
- 5.D.X. Mamatkulova, O.A.Sharipova – Bolalarda raxit kasalligi. 2022.